

ARAB DUNYOSIDA TILLARARO TA’SIR VA INTEGRATSIYA JARAYONLARI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2025-27-196-202>

Ibroximov Islombek

JIDU xalqaro munosabatlar fakulteti

3-bosqich talabasi

Ilmiy maslahatchi: Nigora Azimova Sabitovna

Sharq tillari kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab davlatlarining mahalliy aholisi foydalanadigan bir qancha lahjalarning turlari va ularning paydo bo‘lish tarixi hamda ushbu lahjalarga ta’sir ko‘rsatgan omillar muhokama qilinadi. Shu bilan birga mustamlakachi davlatlar tufayli arab tilida gaplashuvchi aholining hayotida so‘zlashuv, gramatik va lingvistik jihatlarida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar haqida tarixiy nuqtai nazardan bosqichma-bosqich va hududlar kesimida tahlil qilishga harakat qilindi. Bunga qo‘shimcha tarzda bir qancha misollar va raqamlar bilan ularni yanada batafsilroq yoritishga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar: Integratsiya, Identitet, Mahalliy lahjalar (dialektlar), Mag‘rib lahjasi (Darija), Misr lahjasi (Masri), Levant lahjasi (Shomiy lahjasi), Gulf lahjasi (Khaliji), Sudan lahjasi, Yaman lahjasi (Hadhrami), Arab Ligasi, Lingua franca.

INTERLINGUAL INFLUENCE AND INTEGRATION PROCESSES IN THE ARAB WORLD

Ibrokhimov Islombek

UWED, Student of the Faculty of International Relations

3rd year

Supervisor: Nigora Azimova Sabitovna

Teacher at the Department of Oriental Languages

Abstract: This article discusses the various types of dialects used by the local population of Arab countries, their historical development, and the factors that have influenced these dialects. It also analyses, from a historical perspective, changes that occurred in the spoken, grammatical, and linguistic aspects of the Arabic-speaking population due to colonial powers, examining them step by step and across different regions. Additionally, several examples and figures are provided to present the topic in a more detailed manner.

Keywords: *Integration, Identity, Local dialects, Maghreb dialect (Darija), Egyptian dialect (Masri), Levantine dialect (Shami dialect), Gulf dialect (Khaliji), Sudanese dialect, Yemeni dialect (Hadhrami), Arab League, Lingua franca.*

МЕЖЪЯЗЫКОВОЕ ВЛИЯНИЕ И ПРОЦЕССЫ ИНТЕГРАЦИИ В АРАБСКОМ МИРЕ

Иброхимов Исламбек

УМЭД, студент 3-й курса факультета
международных отношений

Руководитель: Нигора Азимова Сабитовна

Преподаватель кафедры восточных языков

Аннотация: В данной статье рассматриваются различные виды диалектов, используемых местным населением арабских стран, история их возникновения, а также факторы, повлиявшие на их формирование. Кроме того, предпринята попытка поэтапного и регионального анализа изменений в разговорной речи, грамматике и лингвистических особенностях арабоязычного населения, произошедших под влиянием колониальных государств. Дополнительно приведены примеры и статистические данные для более детального раскрытия темы.

Ключевые слова: Интеграция, Идентичность, Местные диалекты, Магрибский диалект (Дариджа), Египетский диалект (Масри), Левантийский диалект (Шами), Диалект стран Персидского залива (Халиджи), Суданский диалект, Йеменский диалект (Хадрами), Арабская Лига, Лингва франка.

KIRISH

Arab dunyosida tarixan bo‘lib o‘tgan jarayonlarga hamda geografik joylashuvi jihatdan qulay va resurslarga boy makonda joylashganligi sababli turli imperiyalar va sivilizatsiyalar va turli madaniyatlar uchun chorraha hudud hisoblanadi. Buning natijasida ushbu hududda tillararo ta’sir va integratsiya jarayonlari ham faol bo‘lgan. Tillararo ta’sir nuqtai nazaridan olib qaraydigan bo‘lsak, arab tili bu Qur’on tili, klassik adabiyot va davlat boshqaruvida markaziy o‘rin egallagan bo‘lsada, mintaqaviy lahjalar, mahalliy tillar va tashqi ta’sirlar natijasida uning rivojlanishi hamda shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatib kelgan va hozir ham bu ta’sirlarni ko‘rishimiz mumkin deya ayta olamiz. Bu jarayonda shuni ham ayta olamizki, arab dunyosida ushbu ta’sirlar nafaqat lingvistik jarayon, balki madaniy integratsiya va identitetning shakllanishiga ham ta’sir ko‘rsatgan deya ayta olamiz.

Avvalo tarixiy jihatdan kelib chiqib qaraydigan bo‘lsak, arab tilining tarqalishi VI-VII asrlardagi Islom fathlari bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi. Arab qo‘shinlari va savdogarlari kirib, borgan hududlarda (Shilmoliy Afrika, Yaqin Sharq va Andalusia) kabi davlatlarda arab tili asta sekin yuqori mavqega ega bo‘la boshladi. Lekin ushbu jarayon mahalliy tillarni to‘liq yo‘q bo‘lib ketishiga olib kelgani yo‘q. Misol uchun berber, kokt suroniy, aramey va shu kabi boshqa tillar arab tilining ham fonetikasiga, leksik va grammatik jihatlariga sezirarli ta’sir ko‘rsatdi. Masalan, Mag‘rib lahjalari berber tilidan, Levant lahjalari aramey tilidan, Misr lahjasi esa qadimgi kokt tilidan elementlarni o‘zlashtirgan. Bu holat arab lahjalarining mintaqaviy xilma-xilligini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Hozirgi kundagi arab dunyosi mamlakatlariga qaraydigan bo‘lsak, ular asosan 22 ta mamlakatni tashkil etib, ular asosan Arab Ligasiga a’zo davlatlar hisoblanadi. Ushbu Arab Ligasi a’zolari siyosiy va madaniy jihatdan birlashgan bo‘lsalar ham ularda turli xil mahalliy lahjalar va mintaqaviy dialektlar saqlanib qolgan. Arab tilida ushbu lahjalarni aniqlashdan oldin arab tilini ikki shaklga ajratib olib qaraydigan bo‘lsak, ya’ni bunda fus’ha bu standart arab tili shakli hisoblanib, rasmiy, ilmiy, adabiy va diniy til sifatida ishlatiladi. Bundan tashqari u ta’limda, rasmiy hujjatlarda, OAVda va ilmiy ishlarda qo‘llash uchun asosiy vazifa bo‘lib xizmat qiladi. Butun arab dunyosida tushuniladi, ammo kundalik hayotda kamroq qo‘llaniladi, qaysiki mahalliy lahjalarda gaplashiladigan hududlarda. Mahalliy lahjalarning o‘zini ham oltita yoki yettita asosiy turlarga ajratishimiz mumkin.

Bulardan birinchisi bu Misr lahjasi (Masri) hisoblanadi, asosiy gaplashuvchi davlat Misr hisoblanadi. Ommaviy axborot vositalarida, kinolarda keng qo‘llaniladi hamda, arab kino va media orqali boshqa mamlakatlarda ham tushuniladi, madaniy “lingua franca” – (umumiy muloqot tili) sifatida ham xizmat qiladi. Ushbu lahjada gaplashuvchilar soni bo‘yicha Misr lahjasi eng birinchi o‘rinda turadi.

Ikkinchi o‘rinda, Mag‘rib lahjalari (Darija) turadi deya ayta olamiz, ushbu lahjada gaplashuvchi davlatlar asosan Marokash, Jazoir, Tunis, Liviya va Mauritaniya hisoblanadi. Aytish joizki ushbu lahja turini fus’hadan farqlash birmuncha qiyin hisoblanadi, shu bilan birga aynan ushbu lahjaga fransuz so‘zlari ko‘proq kirib kelgan deya ayta olamiz. Ushbu lahjada gaplashuvchilar soni tahminan Mirs lahjasida gaplashuvchilar bilan teng hisoblanadi.

Uchinchi o‘rinda, Levant lahjasi (Shomiy lahjasi) turadi, bunda asosiy gaplashuvchi davlatlar Livan, Suriya, Iordaniya va Falastin hisoblanadi. Ushbu lahja turi o‘ziga xos bo‘lib tushunish oson hisoblanadi. Ushbu lahjada gaplashuvchilar soni ma’lumotlarga ko‘ra tahminan 45 mln ni tashkil etadi.

To‘rtinchi bo‘lib, Gulf lahjalari (Khaliji) mahalliy madaniyat bilan bog‘liq lahjalardan biridir. Ushbu lahjada gaplashuvchi davlatlar asosan Saudia Arabistoni,

BAA, Qatar, Quvayt, Oman va Bahrayin davlatlari hisoblanadi. Ushbu lahjada gaplashuvchilar soni ham Misr va Magʻrib lahjalaridan keyin katta miqdorni tashkil etadi.

Beshinchi boʻlib, Sudan lahjasi hisoblanib, unda asosan Sudan aholisi gaplashadi, bu bilan birga ushbu lahjada bir qancha mahalliy leksik va talaffuz xususiyatlari mavjud.

Oxirgi boʻlib, boshqalarga nisbatan qadimiyligi va fonetik jihatdan farqlar mavjudligi bilan ajralib turadigan, asosan Yaman aholisi gaplashadigan Yaman (Hadhrami) lahjasi hisoblanadi.

Ushbu lahjalarni koʻrdikki, ularning har biri oʻziga xos xususiyat va jihat kasb etadi. Ushbu jihatlarni tarixda tillararo taʼsirda qanday kechganligiga yanada batafsilroq toʻxtaladigan boʻlsak, arab tili oʻn toʻrt asrdan ortiq vaqt mobaynida doimo boshqa tillar bilan taʼsirlashib integratsiya jarayonida boʻlib kelgan. Ushbu jarayon bir martalik va muayyan vaqtga tegishli boʻlmasdan uzluksiz va koʻp qatlamli tarixiy jarayon boʻlgan. Arab lahjalari (dialektlari) ham aslida ichki boʻlinish tufayli emas, balki boshqa tillar bilan uzoq muddatli kontakt va aloqada boʻlinganligi sababli vujudga kelgan hamda kengayib borgan. Ushbu jarayonlarga davrma-davr toʻxtalib koʻrib chiqadigan boʻlsak, avvalo birinchi boʻlib Islomdan avvalgi davrga toʻxtalamiz.

Islomdan avval ham Arabiston yarimorolida bir qancha qabila lahjalari mavjud boʻlgan. Misol uchun Quraysh, Tamim, Hudhayl va Himyar lahjalari eng keng tarqalganlari edi. Ahmad Al-Jalladning fikricha, bu davrdagi arab tili aramey, nabatiy va geʻez tillari bilan faol aloqada boʻlgan, ayniqsa savdo karvonlari orqali til almashuvi kuchli boʻlgan¹. Bu davrlarda hali fusʼha shakllanmagan davri boʻlib, tashqi taʼsirlar ham yuqori boʻlgan davrlar hisoblanadi. Bu davrdan soʻng Arabiston yarim oroliga Islom kirib kelgandan soʻng arab tili ham Islom bilan birga Suriya, Iroq, Misr, Shimoliy Afrika va Andalusiyaga kirib keldi. Arab tilining davlat boshqaruvi va diniy hayotdagi mavqei kuchaygani sababli mahalliy tillar asta-sekin arab tiliga oʻtdi. Mahalliy tillarning arabizatsiya jarayoni qanday kechganligi toʻgʻrisida manbalarda shunday qayd etiladi:

Iroqda - aramey sekin yoʻqolib arab lahjalari shakllana boshladi.

Misrda – kopt tili XI asrga kelib deyarli qolmay qoldi.

Levanda - suriy tili arabga oʻtdi.

Shimoliy Afrikada – berber tillari bilan kuchli aralashuv yuz berdi.

¹ Al-Jallad, Ahmad. *The Oxford Handbook of the Arabic Language*. Oxford University Press, 2021. p 42-44.

Ushbu davrlarda arab askarlari turli mahalliy aholilar bilan aralashgani tufayli, bu davr arab lahjalarini shakllanishi uchun katta ahamiyat kasb etadi².

Yuqoridagilar bilan bir qatorda Andalusiya ko‘p tillilik markazi sifatida e‘tirof etilgan makonda arab, lotin, roman va ibroniy tillar bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘lgan. Arab tili ilm-fan tili bo‘lib xizmat qilgan, madaniy uyg‘onish esa til aralashuvini kuchaytirgan. Ayni shu davrda arabcha ilmiy terminlar Yevropa tillariga kirgan (algebra, kimyo, atlas) deya aytiladi.

Arab tiliga turk tilining ham bir qancha ta’sir o‘tkazgan jihatlari mavjud. Bu jihatlari esa Usmoniylar imperiyasi bilan bog‘liq XVI-XX asrlarda turk tili ham arab tiling leksikasiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Ayniqsa, o‘sha davrda ma’muriy va harbiy sohada minglab turkcha so‘zlar ishlatila boshlandi. Misol tariqasida odasi, pasha, defter, bashkan, qorovul, yaver kabi so‘zlarni keltirishimiz mumkin. bu so‘zlarning ko‘pchiligi hozir ham Levant va Misr lahjalarida faol ishlatilishi aytiladi³.

Bulardan tashqari XVIII-XX asrlar mobaynida arab tiliga Yevropa tillarini ya’ni fransuz va ingliz tillarining ta’siri juda katta bo‘lganligini ham takidlash joiz. Ushbu davr mobaynida ingliz hamda fransuz mustamlakasi bo‘lgan hududlarda mustamlakachi davlatlarning ta’siri mustamlaka hududlarning nafaqat siyosatiga balki madaniyat va tillariga ham ta’sir o‘tkazgan. Quyida bunga batafsilroq to‘xtaladigan bo‘lsak, avvalo hikoya Napoleonning 1789-yilda Misrga yurishi bilan boshlandi. XIX –XX asrlarda esa Fransiya Shimoliy Afrikaning katta qismini ya’ni Tunis, Jazoir va Marokash kabi hududlarni mustamlaka qildi. Bu vaqt mobaynida fransuz tili deyarli barcha sohalarga kirib bora oldi. Misol uchun boshqaruv, ta’lim va savdo kabilar bunda ustunlik qildi va bu holat arab lahjalariga o‘nlab hatto yuzlab fransuz so‘zlarini kirib kelishiga olib keldi.

Quyida har bir lahjaga fransuz tili ta’siri qay darajada bo‘lganligiga va qanday ta’sir ko‘rsatganiga qisman to‘xtalib o‘tamiz. Bunda birinchi bo‘lib, Misr lahjasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, Misr Mag‘ribdan farqli o‘laroq Fransiya tomonidan to‘liq mustamlaka hudud sifatida ushlab turilmagan. Lekin Napoleon istilosi (1798-1801) va Muhammad Ali davrida (XIX asr) fransuz mutaxassislari ko‘p jalb qilinganligi bois fransuz tili yuqori elita qatlami orasida keng qo‘llanila boshlagani holatini ko‘rish mumkin. Ushbu holatdan kelib chiqib XX asrda diplomatiya, huquq va ta’lim sohasida fransuz lahjasini keng qo‘llanilganini ko‘rish mumkin. Garchi uning o‘rni hozirgi kunda ingliz tili bilan almashtirilgan bo‘lsada, fransuz tili elementlari va ba’zi so‘zlari Misr lahjasida saqlanib qolgan deb aytiladi.

² Bassiouney R., Walters K. (ed.). The Routledge handbook of Arabic and identity. – London & New York : Routledge, 2020. pp 64.

³ Bassiouney, Reem. *Arabic Sociolinguistics*. Edinburgh University Press, 2009. pp 114.

Levant lahjalariga to'xtaladigan bo'lsak, bu lahjani asosan Livan va Suriya kabi hududlarda mavjud bo'lgani bois, ushbu hududlar jihatidan ko'radigan bo'lsak. Livan bilan Suriya 1920-1946-yillarda Fransiya mandati ostida bo'lgan. Bugungi kunda ham Livanda Fransuz tili ta'lim va ommaviy axborot vositalarida mavqega ega hisoblanadi. Suriyada mustaqillikdan so'ng arablashtirish amalga oshirilgan, ammo shunga qaramay *blouse, salon, pantolon* kabi so'zlar hali ham qo'llaniladi.

Marokash lahjasi (Darija) va fransuz tilidagi aloqa esa 1912-1946-yillardagi fransuz protektorati bo'lgan Marokash bilan bog'liq. Bugungi kunda ham fransuz tili Marokashda ta'lim, biznes va davlat idoralarida kuchli o'rinda.

Jazoir lahjasi bu fransuz tili ta'sir eng ko'p bo'lgan lahjalardan biri hisoblanadi. Bu holat esa 132 yillik fransuz mustamlakasi bilan bog'liq (1830-1962). Ushbu davr mobaynida arab tili bilan fransuz tilida juda kuchli qorishuv va dominantlikni ko'rsatgan. Ma'lumotlarda aytiladiki, mustaqillikdan keyin ham fransuz tili kundalik muloqotda ham foydalanilgan. Aholi ko'pincha arabcha va fransuzcha so'zlarni aralashtirib gapirishgan.

Tunis lahjasi (Tounsi) bu lahjadagi fransuz tili ta'siri ham 1881-1956-yillardagi Fransuz mustamlakachilik davri bilan bog'liq hisoblanadi. Ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda ham ko'plab Tunisliklar ikki tilli bo'lib, fransuzcha ko'plab so'zlar dialektikada foydalaniladi.

Yuqorida faqat Yevropa tillarini arab tillari bilan aralashgan holatlarini ko'rib chiqdik, ammo arab tili ham roman-german tillariga ta'sir ko'rsatgan davrlar va sohalar mavjud. VIII-XV asrlarda mavjud bo'lgan Andalusiya arab tilining ko'ptillilik muhitida qanday yashab va rivojlanganiga yaqqol misol bo'la oladi. Bu hududda arab, berber, lotin, roman dialektlari va ibroniy tili bir davrda qo'llanilgan. Classical Arabic ilm-fan tili bo'lib qolgan bo'lsa, kundalik hayotda mahalliy arab lahjalari roman tillari bilan aralashib ketgan. Ushbu holatdan arab tilining ham qanchalik moslashuvchanligi va integratsiya qobiliyatini ko'rsatadi.

Xulosa

Arab dunyosida tillararo ta'sir va integratsiya jarayonlari bu ming yillik tarixiy jarayonlar bilan bog'liq, hamda bugungi kunda ham murakkab, ko'p qatlamli va dinamik lingvistik tizimni shakllantirgan. Arab tilining tarqalishi biryoqlama bosim emas, balki o'zaro ta'sirga asoslangan madaniy-sivilizatsion almashinuv bo'lgan. Mahalliy tillar (Berber, Kopti, Aramey, Fors, Turk tillari) arab tiliga chuqur fonologik, leksik va sintaktik izlar qoldirgan, shu bilan birga arab tili mintaqaning siyosiy, diniy va madaniy markazi sifatida ustun mavqeini saqlab qolgan. Umumiy xulosa tarzida shu davr ichida yuz bergan jarayonlarni tasniflash uchun tillararo ta'sirni yuzaga kelishidagi manbalar sifatida to'rtta manbani keltirishimiz mumkin. Birinchidan, bu imperial va diniy bunda Islom tarqalishi va Qur'on tili orqali arab

tilining rasmiyligi mustahkamlandi. Ikkinchidan, savdo va migratsiya orqali ya'ni dengiz savdo yo'llari, karvon yo'llari kuliya migratsiya orqali leksik va iboralar almashildi deya ayta olamiz. Uchinchidan, substrakt va abstrakt kontaktlardir. Bunda Berber, Coptic, Aramaic, Persian va Turk tillari ta'siri fonologiya va leksik o'zgarishlarda sezildi. To'rtinchidan, mustamlaka ta'sirlari bu XIX-XX asrlardagi ma'muriy va ta'limdagi hamda boshqa sohalardagi ta'sirlari orqali sezildi deyishimiz mumkin. Shuningdek, bular ayni tillararo ta'sirdagi asosiy manbalardir. Ammo, shuni ham takidlashimiz kerakki, bu yuqorida takidlangani kabi ta'sirlar borligiga qaramay, arab tili kuchli identitet maqomini barqaror saqlab kelmoqda. Bunda fus'haning o'rni davlat, din va ta'lim doiralarida yuqori maqomni saqlab turgan bo'lsa, lahjalar ijtimoiy hayotning asosiy kommunikativ vositasi sifatida yangidan-yangi registrlar bilan boyib bormoqda.

Umuman olganda, arab dunyosidagi tillararo ta'sir va integratsiya jarayonlari bu hududning tarixiy qatlamlari, madaniy xilma-xilligi va zamonaviy global jarayonlarining kesishgan nuqtasida shakllanadi. Til bir tomondan umumarab identitetini mustahkamlasa, ikkinchi tomondan mahalliy madaniyatlarning o'ziga xosligini saqlab qoladi. Shu bois arab tilining hozirgi manzarasi bu bir vaqtning o'zida barqarorlik va o'zgarish, birlashish va farqlanish, tarixiy meros va zamonaviy innovatsiyalarni mujassam etgan noyob lingvistik ekotizimdir

FOYDALANILGAN ADABOYOTLAR:

1. Al-Jallad, Ahmad. *The Oxford Handbook of the Arabic Language*. Oxford University Press, 2021.
2. Bassiouney R., Walters K. (ed.). *The Routledge handbook of Arabic and identity*. – London & New York: Routledge, 2020.
3. Bassiouney, Reem. *Arabic Sociolinguistics*. Edinburgh University Press, 2009.
4. Owens, Jonathan. *The Arabic Dialects*. Tübingen: Narr Verlag, 1984.
5. Souag, Lameen. *Berber and Arabic in Siwa Oasis*. Boston: Brill, 2013.
6. Wasserstein, David. *The Rise and Fall of the Party-Kings: Politics and Society in Islamic Spain*. Princeton University Press, 2011.
7. Mecid, Ahmed. “French–Arabic Code-Switching in the Maghreb.” *Journal of North African Linguistics* 5, no. 2 (2020): 115–139.
8. [Arabic and French: A Shared Legacy \(MSA & dialects with audio!\) - Playaling](#)
9. Azimova, N. S. (2024). The Emergence of The Stylistics of The Arabic Language. *Current Research Journal of Philological Sciences*, 5(08), 22-25.